

## О'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

*Fayzullayev Abdusamad Dilmurod o'g'li*

*TDIU, Moliya fakulteti 2-kurs talabasi*

*TDIU, Iqtisodiyot, boshqaruv, soliqlar va sug'urta  
kafedrasi katta o'qituvchisi. PhD - Umirov A.*

**Annotatsiya:** Hozirda yurtimizdagi iqtisodiy o'sish sekinlashib, inflatsiya darajasi juda ham yuqori darajani qayt etib turibdi. Ushbu tezisimizda yurtimizdagi kichik-kichik tadbirkorlik yurituvchi shaxslarning biznesini yanada rivojlantirish orqali qo'shimcha ish o'rinlari yaratib, inflatsiya darajasini kamaytirish kerakligi keltirib o'tilgan. Va shu bilan birgalikda so'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish uchun juda ko'p qonunlar, farmonlar va qarorlar qabul qilinmoqda. Bu esa o'z navbatida xususiy tadbirkorlarni tashabbus ko'rsatib, yurtimiz iqtisodiyotiga o'z xissalarini qo'shishiga sabab bo'lmoqda.

**Kalit so'zlar:** Kichik tadbirkorlik, biznes, iqtisodiyot, tadbirkor, moliya, korxonalar, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik.

Bozor munosabatlariga o'tishda Iqtisodiyotning asosiy bosqichlaridan biri bu tadbirkorlik sanaladi. Mamlakatimiz hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlanishi va mazkur sektorni davlat tomonidan tartibga solinishi yanada faollashib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda iqtisodiyotning o'sishini ta'minlash va modernizatsiyalash hamda hzirgi ishsizlik darajasi oshgan bir paytda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlariga soliqlarni kamaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik manfaatlarini ishonchli himoya qilish va ularga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidenti SH.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Tadbirkorlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida 105 ta litsenziya va ruxsatnoma turlari bekor qilinadi, 115 tasi bo'yicha esa tartib-qoidalar soddalashtiriladi. Pandemiya sharoitida aylanma mablag' tanqisligiga duch kelgan tadbirkorlarimiz "Oyoqqa turib olishlari" uchun ularga ko'mak berishni davom ettiramiz" [1]. Tadbirkorning asosiy maqsadi manfaat ko'rish bilan bir qatorda, bozorda samarali faoliyat yuritishni ta'minlaydigan ishlarni amalga oshirishdir. Buning uchun tadbirkorlikni boshqarish va unga ko'mak beruvchi zamonaviy menejment usullariga asoslangan mexanizmni yaratish va undan unumli foydalanishni ta'minlash zarurdir. Bugunga kelib yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodimizning har jabhalarida o'zini ko'rsatmoqda va shu bilan birga rivojlanib bormoqda. Va ayta olishimiz mumkin, bu Iqtisodiyotimizning asosiy

rivojlanuvchi qismi bo'lib ham qolmoqda. Hozirgi kunda yurtimizda davlatimiz rahbari tomonidan 2022-2026-yillarda mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi" ning "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" ustuvor yo'nalishida yurtimiz iqtisodiyotini keng ko'lamda rivojlantirish maqsad qilingan. Buning natijasida esa 2030-yillarga kelib, kishi boshiga hisoblanganda, aholi daromadlarini o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan davlatlar qatoriga chiqishi belgilangan. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun bir qancha qarorlar qabul qilmoqda. Xususan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish loyihasini moliyalashtirish uchun "Tiklanish va taraqqiyot" jamg'armasidan "Agrobank" ATB, "Mikrokreditbank" ATB va AT Xalq bankiga alohida tasdiqlanadigan taqsimotga asosan 300 mln AQSH dollari ekvivalentidagi mablag'lar 3 yillik imtiyoz bilan 7 yillik davrga 10% stavka bilan ajralishi belgilangan tartibda o'rnatildi. Hukumat tomonidan 1 yillik muddatga 55 mingdan ortiq binolar tadbirkorlarga topshirildi. Buning natijasida pul aylanmasini 1 mlndan oshirgan talabalar soni 26 mingtaga yetgan. Bu esa o'z navbatida o'tgan yilgi natijadan 5 mingtaga ko'p hisoblanib, tadbirkorlar daromadiga ta'sir ko'satmay qolmaydi. Nafaqat tadbirkorlar balki davlatdan eksport qilingan tovarlar hajmini ham 30% ga oshirgan.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi/Доля малого бизнеса и частного предпринимательства в ВВП/Share of small business and private entrepreneurship in GDP**

Klassifikator	Klassifikator_ru	Klassifikator_en	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	Республика Узбекистан	Republic of Uzbekistan	64,6	66,8	65,3	61,7	55,3	54,8	54,1	51,6	51,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	Республика Каракалпакстан	Republic of Karakalpakstan	69,7	63,6	58,5	57,0	56,6	58,3	56,3	55,8	58,7
Andijon viloyati	Андижанская область	Andijan region	78,5	83,6	80,2	73,1	69,7	70,1	72,2	67,1	66,0
Buxoro viloyati	Бухарская область	Bukhara region	77,4	79,3	79,9	81,0	74,5	75,7	75,9	72,5	71,7
Jizzax viloyati	Джизакская область	Jizzakh region	83,0	84,2	85,6	86,3	83,2	83,0	80,1	77,3	73,7
Qashqadaryo viloyati	Кашкадарьинская область	Kashkadarya region	63,2	66,7	73,6	72,8	70,9	71,6	69,9	67,5	68,4
Navoiy viloyati	Навоийская область	Navoi region	51,0	50,4	49,4	42,3	31,0	25,7	27,1	25,9	26,0
Namangan viloyati	Наманганская область	Namangan region	78,7	79,8	80,8	80,6	76,0	74,7	73,8	72,4	72,8
Samarqand viloyati	Самаркандская область	Samarqand region	80,2	81,2	82,6	80,8	75,4	74,3	74,1	70,4	72,8
Surxondaryo viloyati	Сурхандарьинская область	Surkhandarya region	77,4	79,1	79,5	81,2	78,8	77,2	77,0	76,1	75,9
Sirdaryo viloyati	Сырдарьинская область	Syrdarya region	75,1	75,9	77,9	77,9	69,9	70,7	69,1	65,1	63,6
Toshkent viloyati	Ташкентская область	Tashkent region	66,5	67,9	65,0	58,9	51,6	49,5	45,6	46,6	48,7
Farg'ona viloyati	Ферганская область	Fergana region	69,7	73,9	71,7	71,3	69,4	70,7	69,8	68,9	69,5
Xorazm viloyati	Хорезмская область	Khorezm region	77,1	79,4	79,1	79,2	76,6	76,2	73,7	69,9	69,7
Toshkent shahri	город Ташкент	Tashkent city	66,7	68,1	63,0	65,0	53,3	51,5	48,8	49,2	49,8

1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi

Bu statistikani shuni anglatadiki, yurtimizda 2015 -2018 – yillar oralig'ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka katta e'tibor qaratilgan va YIM indeksi ancha yuqorilagan. Keyingi yillardagi statistikani qaraydiga bo'lsak bu ko'rsatkich pastlagan. Shu sababdan bu yil ya'ni, 2024- yil kichik bizneslarga va xususiy tadbirkorlarga kata

e'tinor qaratilgan holda yil nomini yurtimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Yoshlar va biznesni qo'llab quvvatlash yili" deb e'lon qilindi. Bunda esa bu yilda yurtimizda raqamli texnologiyalarni, yashil iqtisodiyotni va davlatimizga chet el investitsiyalarini jalb qilish asosiy maqsad qilib olingan.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror va jadal rivojlantirish uchun ularning kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, tabiiy xom ashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini, iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatini, shuningdek, past reytingga ega hududlarni reytingini oshirishda quyidagi yo'nalishlardagi strategik vazifalarni amalga oshirish zarur:

-KBXT ning statistik ko'rsatkichlari va so'rovnomalari natijalari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini eyting baholash;

- KBXT sohasida yangi ish o'rinlari yaratish, ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozori samaradorligini ta'minlash;

- aholi va biznes uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish infratuzilmasining barqarorligi hamda ishonchiligini ta'minlash.

Davlatimizning iqtisodiyotini rivojlantirishdagi faoliyatini samarali olib borishdagi mavjud amaldagi qonunchilikni isloh qilish, investitsiyalarni va tadbirkorlikni hududlar kesimida rivojlantirishni yo'lga qo'yishimiz kerak. Biz yoshlar va tadbirkorlik qilmoqchi bo'lgan insonlar ushbu keng ko'lamli imkoniyatlardan oqilona foydalanishimiz va yurtimiz iqtisodiyotini yuksa darajalarga olib chiqisimiz darkor deb o'ylayman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. .SH.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/list/view/4056>

2. SH.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-mayda "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'grisida" gi PQ-4702-son Qarori.

3. <https://cyberleninka.ru/article/n/kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikga-kiritilgan-investitsiyalarni-statistik-baholash/viewer>

4. <https://www.mf.uz/>

5. <https://stat.uz/uz/haqida/statistika-kengashi>